

**YOSHLAR ORASIDA HARBIY-VATANPARVARLIK RUHINI  
MUSTAHKAMLASH**

***Alijonov Baxtiyor Xoshimovich***

*Farg'ona Davlat Universiteti Harbiy Talim Fakultiti O'qituvchisi*

***Ergashaliyev Shahriyor Ulug'bek o'g'li***

*Farg'ona Davlat Universiteti Harbiy Talim Fakultiti Talabasi*

***Abduraximov Xasanboy Dilshodbek o'g'li***

*Farg'ona Davlat Universiteti Harbiy Talim Fakultiti Talabasi*

***Umarov Komronbek Umidjon o'g'li***

*Farg'ona Davlat Universiteti Harbiy Talim Fakultiti Talabasi*

**Annotatsiya:** *O'zbekiston Respublikasida yosh avlodni ona-vatan manfaati yo'lida fidoyilik, mas'uliyat va intizomga tayyorlashga qaratilgan davlat siyosati, ta'lim tizimidagi islohotlar, harbiy-patriotik tadbirlarning samaradorligi yoritiladi. Shuningdek, o'quv yurtlarida, mahalla va jamoat tashkilotlarida olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarda zamonaviy yondashuvlar, yoshlarning harbiy xizmatga bo'lgan motivatsiyasi, axborot xavfsizligi sharoitida mafkuraviy immunitetni rivojlantirish masalalari ko'rib chiqiladi. Maqola yakunida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar beriladi.*

**Kalit so'zi:** *Yoshlar, vatanparvarlik, harbiy-patriotik tarbiya, tarbiya tizimi, milliy armiy, mas'uliyat, intizom, davlat siyosati, mafkuraviy immunitet, harbiy xizmatga tayyorgarlik, motivatsiya, yoshlar siyosati, harbiy ta'lim.*

**KIRISH:** <sup>1</sup>Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga doir ishlar samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish, mazkur yo'nalishda davlat va nodavlat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari faolligini

---

<sup>1</sup> Vazirlar Mahkamasining "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2018-yil 23-fevraldagi 140-son [qarori](#).

yanada oshirish, yoshlar ongiga vatanparvarlik, mardlik tuyg'ularini singdirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Mudofaa vazirligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan birgalikda uch oy muddatda umumta'lim maktablarida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qitilishini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha 2023 — 2027-yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqsin va tasdiqlasin. O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi O'zbekiston Milliy axborot agentligi hamda Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi bilan birgalikda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha o'tkaziladigan tadbirlar ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog'i orqali keng yoritilishini ta'minlasin. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash — bu millati, tili va kasbidan qat'i nazar, yoshlarda <sup>2</sup>Vatanga sadoqat tuyg'usini shakllantirish, ularni o'z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan davlat organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlarning ko'p bosqichli, tizimli, maqsadli va muvofiqlashtirilgan faoliyatidir. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimi uzluksiz jarayon bo'lib, u bir-biriga bog'liq siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy-mafkuraviy, madaniy-ma'rifiy tadbirlar majmuasidan iborat. Vatanni himoya qilish, uni asrash to'g'risidagi zamonaviy tushunchalarni, dunyoqarashni, mazkur masala bo'yicha shaxsiy e'tiqodni shakllantirish va mustahkamlab borish, yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash, ularning ma'naviy-ruhiy tayyorgarliklarini oshirishga yordam beruvchi ta'lim-tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari O'zbekiston Respublikasining [Konstitutsiyasi](#) va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining (keyingi o'rinlarda — Qurolli Kuchlar) umumharbiy nizomlari hamda

---

<sup>2</sup> Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida" 2020-yil 23-martdagi 179-son qaroriga ilovaning [9-bandi](#).

boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimi quyidagilardan iborat: ta'lim-tarbiya jarayonida ijtimoiy-ma'naviy ahamiyatga molik qadriyatlarni, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan ishlarni amalga oshiradigan maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim muassasalari; ommaviy va harbiy-vatanparvarlik ishlarini amalga oshiradigan davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek, boshqa tashkilotlar.

Quyidagilar yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy prinsiplari hisoblanadi:

ilmiylik;

tarixiylik;

aniqlik va tezkorlik;

muntazamlilik;

faollik;

ta'lim va tarbiya ishlarining uyg'unligi;

tarbiya jarayonining izchilligi;

harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash sohasida erishilgan ijobiy natija va yutuqlarga tayanish.

<sup>3</sup>Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralar, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar, Maktabgacha va maktab ta'limi, Madaniyat, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirliklari, Yoshlar ishlari agentligi, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Yozuvchilar uyushmasi, Respublika "Nuroni" jamg'armasi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi, O'zbekiston mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti, harbiy-ma'muriy sektorlar yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlarining asosiy subyektlari hisoblanadi.

(12-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 8-

---

<sup>3</sup> Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida" 2021-yil 20-maydagi 320-son qaroriga 1-ilovaning [12-band](#)i.

maydagi 272-sonli [qarori](#) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 10.05.2024-y., 09/24/272/0337-son)

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari, ta'lim muassasalari o'quvchi va talaba yoshlari, mahallalardagi uyushmagan, profilaktik hisobda turuvchi hamda tarbiyasi og'ir yoshlar, Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari, Qurolli Kuchlar safida xizmat o'tayotgan yosh harbiy xizmatchilar (xodimlar) harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlarining asosiy obyektlari hisoblanadi.

Quyidagilar yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning usullari hisoblanadi:

- ishontirish;
- mashq qildirish va mustaqil ishlash;
- kuzatish;
- rag'batlantirish;
- o'rnak ko'rsatish va shaxsiy namuna.

**MUHOKAMA:** Yoshlar orasida harbiy-vatanparvarlik ruhini shakllantirish va mustahkamlash bugungi globallashuv jarayonida davlatning barqaror rivojlanishi hamda milliy xavfsizligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasida ushbu jarayonni tizimli asosda yo'lga qo'yish uchun keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Avvalo, "Yoshlar siyosati to'g'risida"gi Qonun, "Vatan himoyachilari kuni", "Harbiy-ma'rifiy oyliklar" kabi tashkiliy-huquqiy asoslar yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning davlat darajasida qo'llab-quvvatlanayotganini ko'rsatadi. Ta'lim muassasalari yoshlar ongida Vatanga sadoqat, Qurolli Kuchlarga hurmat, milliy qadriyatlarni qadrlash kabi fazilatlarni shakllantirishda asosiy o'rin egallaydi. Maktablarda "Vatanparvarlik darslari", harbiy sport musobaqalari,

**XULOSA:** Yoshlar orasida harbiy-vatanparvarlik ruhini mustahkamlash milliy xavfsizlikning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Mamlakatda ushbu yo'nalishda keng qamrovli tizimning yaratilgani yosh avlodning Vatanga sadoqati, mas'uliyati va fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Maktab va OTMlarda tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish, zamonaviy tahdidlarga qarshi

mafkuraviy immunitetni shakllantirish, harbiy tuzilmalar va jamoatchilikning hamkorligini kuchaytirish ushbu jarayon samaradorligini yanada oshiradi. Maqola yakunida aytish mumkinki, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi kompleks yondashuvni talab qiladi va yoshlarning ongida Vatanga muhabbat, sadoqat, jasorat kabi yuksak fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Vazirlar Mahkamasining “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2018-yil 23-fevraldagi 140-son [qarori](#).
2. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida” 2020-yil 23-martdagi 179-son qaroriga ilovaning [9-bandi](#).
3. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida” 2021-yil 20-maydagi 320-son qaroriga 1-ilovaning [12-bandi](#).
4. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida” 2022-yil 4-apreldagi 153-son qaroriga ilovaning [480-bandi](#).